

22.11.2022 185277 lotga asosan
XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

-01

06 dekabr 2022 yil.

600-7-105-MT/2022-son

Urgut tuman MTB (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan J.Zoitov nizom asosida harakat qiluvchi bir tomondan va "SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi D.Usmonov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: Urgut tuman MTB tassarufidagi 32-DMTT binosini kuzatuv kamerasi bilan ta'minlash, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi

2. SHARTNOMA BAHOSI

SHartnoma bahosi 17 800 000 (O'n yetti million sakkiz yuz ming) so'mni tashkil etadi.

SHartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi: Urgut tuman MTB tassarufidagi 32-DMTT binosini kuzatuv kamerasi bilan ta'minlash

SHartnomaning 2.1- bandida ko'rsatilgan baho dastlabki bo'lib, so'nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq belgilanadi. SHartnoma bahosi inflyasiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. SHartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO'LOV SHARTLARI

Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: SHartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30% to'lov ko'chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 70% to'lov ko'chiriladi

To'lov shakli: pul o'tkazish orqali.

SHartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, 10 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi: Shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30% to'lov ko'chiriladi. Ish xizmat bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan 70% to'lov ko'chiriladi

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga etkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish ob'ektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan ob'ektlarni qabul qilish

dalolatnomasi imzolanganidan keyin 10 kunlik muddatda

qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida ob'ektni qabul qilib olish

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIKLARI

Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek Pudratchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi Pudratchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa —10 foiz miqdorida jarima to'laydi.

Tovarlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, Pudratchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Buyurtmachi xizmatlarni Sotuvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Buyurtmachi Sotuvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Pudratchi:

- miqdor, sifat, texnik parametrlar, shuningdek taklif etilayotgan tovarlarni yetkazib berish muddatlari va joyi bo'yicha Pudratchi shartnoma shartlarining Buyurtmachi nazarda tutilgan shartlarga muvofiqligi;

- shartnoma shartlarining boshqa buzilishlari;

- tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilmaganligi uchun javob beradi.

Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalariga (etalonlarga) qonun hujjatlarida yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi (Buyurtmachi) tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, Pudratchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima Sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, tovar Pudratchi Buyurtmachiga (Buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun Sotuvchi Buyurtmachiga (Buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda sotib oluvchi (Buyurtmachi) jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin Pudratchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi Pudratchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

7. FORS-MAJOR

Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (engib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma engib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun etarli hujjatdir.

O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf engib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

Agar engib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz 3 oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Savdo- sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudida uning Reglamentiga asosan hakamlik sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi. Hakamlik sudining hal qiluv qarori taraflar uchun qat'iy va majburiy hisoblanadi.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

“Sotib oluvchi” “Sotuvchiga”ga mazkur shartnoma doirasida qo‘yidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o‘z zimmasiga oladi:

Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste‘molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, “Sotuvchi”ning korrupsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O‘zbekistan Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat’iy rioya qiladi.

10. YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Pudratchi”	“Buyurtmachi”
"SAMARKAND SMART STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi	Urgut tuman maktabgacha ta’lim bo’limi
Manzil: Samarkand viloyati, Samarkand shaxri, Rudakiy kuchasi 97 uy	Manzil: Urgut shaxri Navoiy shox kuchasi
INN: 308848472	INN: 207266806 OKONX: 92400
OKONX: 43210	X/R:
X/R: 20208000205436674001	100022860182367091100251001
Bank: SAMARKAND SH., "IPOTEKA-BANK" ATIB SAMARKAND VILOYAT FIIL	23402000300100001010
Manzil: 00312	Toshkent sh. Markaziy Bankining Toshkent sh. XKKM
Rahbar: D. Usmonov	MFO: 00014 INN: 201122919
(imzo)	Rahbar: J. Zoitov
	M.O’.
	(imzo)

Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
[[QR]]	Imzolovchi F.I.SH. undefined
	Imzolangan sana undefined
	Hujjat kodi undefined
	Hulosa kodi undefined



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

OV0212031052

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Urgut tuman MTB bilan "SAMARKAND SMART
STANDART SERVICE" Xususiy korxonasi o‘rtasida tuzilgan 17800000 so‘mlik
shartnoma**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: "URGUT TUMAN
MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI" MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI
tomonidan 02.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish
maqsadga muvofiq.

**Urgut tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



O.I.YOQUBOV

06.12.2022